

DAYJEST

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING INNOVATSION
SALOHIYATI



INNOVATION
RIVOJLANISH
AGENTLIGI



ILMIY-TEKHNIK
AXBOROT
MARKAZI



TOSHKENT – 2025

CSTI.UZ

Oroldagi bog'im

My garden in the Aral Sea

Asosiy maqsadi xorijlik turistlar va mahalliy aholining Orol dengizi muammosiga, Orolbuyini ko'kalamzorlashtirish ishlariga o'z ulushini qo'shishga chorlash



Hohlovchilar Mo'ynoq uchastkasiga kerakli miqdordagi daraxtlarni to'g'ridan-to'g'ri kelib ekadi yoki loyiha veb-sayti orqali masofadan turib daraxt ekishga buyurtma beradi.

Bog' hududi 14.5 gektar, manzarali daraxatlar soni 35 000

Orolning qurigan tubida saksovul maydoni 63 gektar





NUKUSDAN YEVROPAGA

Nukuslik tadbirkor

Italiya, Fransiya va Germaniya mamlakatlariga quritilgan pomidor eksport qilmoqda. Nukus innovatsion tumanida “Quyoshda quritilgan ekologik toza (organik) pomidor ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish” loyihasi samarali amalga oshirilmoqda.

Mahsulot eksporti

So'nggi 3 yil ichida mahsulot eksporti umumiy ishlab chiqarishning 98% ni tashkil qilmoqda.

2024-yilda 20 tonna quritilgan ekologik toza (organik) pomidorlar Italiya, Fransiya va Germaniya mamlakatlariga eksport qilindi.



“Biogumus”


fermer xo'jaligining mazkur startapi 2022-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilgan va to'liq quvvatda ishga tushirilgan.

DERAZA TOKCHASIDAN BOSHLANGAN KICHIK BIZNESNING KATTA DAROMADI

Nukuslik Gulzarxan Toreniyazova 2021-yilda mikroko'katlarning foydasi haqida o'qib, ularni uyda yetishtirishni boshladi. Yelim konteyner, tuproq, suv puflagich va urug'lar yordamida deraza tokchasida mikroko'katlar hosil qila boshladi. Natijada bu faoliyatni biznesga aylantirib, grant yutdi va mikroko'kat yetishtirishni davom ettirdi. Bugungi kunda u qahvaxonalar va restoranlarga mahsulot yetkazib berib, 100 million so'mdan ortiq daromad oldi.



Gidroponika usulida mikroko'kat yetishtirishning afzalliklari ko'p. Suvni qayta ishlash, tuproqdan foydalanmaslik va kamroq suv sarflash imkoniyati mavjud. Ushbu usulda 12 oy davomida hosil olish mumkin, va 1 ta konteynerdagi mikroko'kat narxi 15-20 ming so'm.



QORAQALPOG'ISTONDA

Yangi Energiya Tejamkor Texnologiyalar

Qoraqalpog'istonda ko'p qavatli uylar uchun innovatsion, energiya tejamkor isitish tizimlari ishlab chiqilmoqda va o'rnatilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri va tumanlaridagi ko'p qavatli turar joy binolarida yakka tartibdagi isitish tizimlarini markazlashgan, arzon va xavfsiz issiqlik manbasi bilan

ta'minlash maqsadida innovatsion, energiya tejamkor isitish qozonlari ishlab chiqarilmoqda. Ushbu tizimlar 100 dan 5000 m² gacha bo'lgan turar joy binolariga o'rnatilishi rejalashtirilgan.

Texnologik asbob-uskunalar olib kelingan va montaj ishlari yakunlangan. Shuningdek, Orol buyi bolalari uchun reabilitatsiya markazi va ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasi bilan 70,670 mln so'mlik shartnoma tuzildi. Shartnoma asosida 2 ta 300 KvT lik isitish qozonlari ishlab chiqildi va muvaffaqiyatli realizatsiya qilindi.



Bundan tashqari, Nukus shahri Xalq ta'lim boshqarmasi bilan 633 mln so'mlik shartnoma imzolandi. Hozirda loyiha asbob-uskunalari muvaffaqiyatli o'rnatilib, tegishli ishlari davom ettirilmoqda. Bu startap loyiha rejalashtirilgan maqsadlar asosida samarali rivojlanmoqda.

NUKUS INNOVATSION TUMANIDA KO'Z KASALLIKLARINI DAVOLASH BO'YICHA

MOBIL KLINIKA

XIZMAT KO'RSATMOQDA



INNOVATSION RIVOJLANISH AGENTLIGI

tomonidan tijratlashtirilgan loyiha, “Jana-Nazer” MCHJ tomonidan amalga oshirilib, aholi orasida ko'z kasalliklarini davolash va erta aniqlash uchun mobil klinika xizmatini taklif etadi. Loyiha 572,8 mln. so'm miqdorida moliyalashtirilib, 2024 yil oktyabridan boshlab to'liq ishga tushirildi.



Loyihaning muallifi Azat Tleumuratovning ta'kidlashicha, chekka hududlardagi aholining tibbiy ko'rikdan o'tish uchun vaqt ajrata olmasligi sababli, ko'z kasalliklarining ko'payishiga olib kelmoqda. Masalan, miopiya va glaukomaning erta aniqlash orqali ko'rish qobiliyati yo'qotilishining oldini olish mumkin.

Zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan “mobil klinika” avtobusi Qoraqalpog'istonning chekka hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Loyiha ko'z kasalliklarini erta aniqlash va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan.





E'TIBORINGIZ UCHUN



RAHMAT!



CSTI.UZ